



ASHYOVIY DALILLARNING SUD TIBBIY EKSPERTIZASI

Axmedov Tulrin Jurakulovich

Toshkent davlat stomatologiya instituti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: Sud tibbiy ekspertiza jarayonida keng tarqalgan tekshiruv usullaridan biri bo'lib, serologik tekshiruv usullari hisoblanadi. O'z navbatida qotillik va nomusga tajovuz qilish jinoyat ishlarida dalillarga asoslangan tibbiyot tekshiruv usullari natijalari foydalaniladi.

Kalit so'zlar: Sud biologik ekspertiza, ashyoviy dalil, qon, sperma.

Biologik kelib chiqishga ega bo'lgan ajralmalar dog'larining tekshiruvlari har xil ob'ektlarda sud tibbiy ekspertizasi o'tkaziladi. Biologik kelib chiqishga ega bo'lgan dog'lar o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, dog'lar sezilsiz va vaqt o'tishi bilan o'z xususiyatlarini yo'qotishi mumkin. Atrof muhitning tashqi ta'sirlari ular chirish va boshqa destruktiv o'zgarishlarga uchrashi natijasida, o'zining qator individual xususiyatlarini yo'qotadi. Bundan tashqari jinoyatchilar voqea sodir bo'lgan joyda jinoyat izlarini yo'qotishga harakat qiladilar.

Biologik xususiyatli hamma dog'lar tekshiruvlari sud – biologik yoki sud tibbiy ekspertiza tekshiruv natijalari hisoblanadi. Shuning uchun ko'pchilik holatlarda, ekspertlik tekshiruvlar tabiiy omillar ta'siriga qaramasdan ekspert asosiy va muhim vazifalardan biri bo'lib, gumonlanuvchi shaxs orasida jinoyatchilikning jinoyat izlari ishonchli dalillarini aniqlash hisoblanadi. Molekulyar biologiya va gen injeneriyasi sohasida chuqur ilmiy izlanishlar natijasida tekshiruvlarining takomillashishi, nasliy belgilar molekulyar asoslari va biologiya hamda genetikaning yangi imkoniyatlarni ochishda keskin burilishlar yaratildi. Bu sud biologiya sohasida ham yuqori texnologik tekshiruvlar o'tkazish, ashyoviy dalillarda biologik kelib chiqishga ega bo'lgan dog'lar antigenlarini sud tibbiy ekspertizalarini o'tkazib, shaxs identifikatsiyasini aniqlash, asosan inson biologik ajralmalar dog'larini tekshirishda sud tibbiy ekspertlar faoliyatida qator tekshiruvlari samaradorligini oshirish imkoni tug'ildi.

Qotillik va nomusga tajovuz qilish kabi jinoyatlarda har doim biologik xususiyatli ob'ektlar aniqlanadi. Biologik tekshiruv ob'ektlari har xilligi provardida serologik, sitologik, genetik zamonaviy tekshiruv usullari orqali sud tibbiy ekspert biologlar tomonidan ko'pchilik savollar o'z yechimini topadi.

Hozirgi vaqtlarda sud tibbiy ekspertiza jarayonida keng tarqalgan tekshiruv usullaridan biri bo'lib, serologik tekshiruv usullari hisoblanadi. O'z navbatida qotillik va nomusga tajovuz qilish jinoyat ishlarida shu kabi haqiqiy aniqlangan tekshiruv usullari natijalari foydalaniladi. Biroq sud tibbiy ekspertiza jarayonida serologik tekshiruv usullarini qo'llash jinoyat ishlarini ochishda muammoli tus oladi.

Ashyoviy dalillar sud tibbiy ekspertizasi amaliyotida, asosiy muammolardan biri bo'lib, tekshiruv usullarining imkoniyatlari cheklanganligi hisoblanadi. An'anaviy foydalanilayotgan tekshiruv usullariga bog'liq ravishda zardoblarning sezuvchanligi past, nospesifik yoki unga buyum tashuvchi ta'sir qilishi mumkin. Natijada ajralmalarning



antigenining tur va guruhiiy mansubligi ishonchli tarzda aniqlanmasligiga olib keladi. Bundan tashqari ohirgi paytlarda hattoki, yangi qon, ajralmalar va soch na'munalarida ham ABO tizimi antigenlari aniqlanmaslik holatlari uchrab turibdi. Adabiyotlardan ma'lumki, ayrim patologik holatlarda qon na'munalarida ham guruhiiy mansubligini aniqlash imkoni bo'lmaydi. Qon va biologik ajralmalar ekspertizasida imkon darajada guruhiiy mansubligi haqida ma'lumotlar berish talab etiladi.

Qotillik, tan jarohatlari yetkazish, nomusga tegish, kriminal abort, yo'l-transport hodisasi va boshqa holatlarda har doim qon sud-tibbiy ekspertisasi o'tkaziladi. Shuning uchun qon jabrlanuvchi tanasida, kiyimlarida, jinoyat quroli va boshqa predmetlarda bo'lishi mumkin. Shuningdek, jabrlanuvchining qoni jinoyatchining tanasida va kiyimida bo'lishi mumkin.

Ashyoviy dalillarda qon dog'larini tekshirish ekspertizasida birinchi hal qilinadigan savollardan biri bo'lib, dog'larda qon mavjudligini aniqlash hisoblanadi. Agar ashvoviy dalillarda qon mavjud bo'lmasa, tabiiyki, ekspert qarorda keltirilgan keyingi savollarga, masalan, qonning tur va guruhiiy mansubligini aniqlash kabi savollarga javob berishiga xojat ham qolmaydi. Ashvoviy dalillarda qon sud biologik ekspertizasida tergovchi tomonidan qaror tayinlashda maqsadga muvofiq ekspert oldiga hal etish uchun quyidagi savollar qo'yiladi:

1. Ashvoviy dalillarda qon mavjudmi?
2. Agar qon mavjud bo'lsa, uning tur mansubligini aniqlansin.
3. Agar ashvoviy dalillarda odam qoni bo'lsa, u qon qaysi guruhga mansub?
4. Jabrlanuvchi va gumonlanuvchi (ayblanuvchi) ning qoni qaysi guruhga mansub?
5. Ashvoviy dalillardagi qon dog'lari kimga tegishli bo'lishi mumkin?

Shu sababli ish bo'yicha o'tuvchi shaxslarning qon na'munalarini taqdim etilish lozim bo'ladi.

Sperma tekshiruvlari ham qon dog'larining tekshiruv bosqichlari kabi jarayonlardan o'tadi. Ya'ni hodisa sodir bo'lgan joyda dog'larni aniqlash, ular olish, qadoqlash va sud-biologik laboratoriyaga jo'natish, o'z navbatida sud-biologik tekshiruvlardan o'tkazish va tekshiruv natijalarini tegishli hujjatlarni bilan rasmiylashtirish kerak bo'ladi.

Tekshiruv ob'ektlari har xil bo'lib, ular ko'pchilik hollarda jabrlanuvchi va ayblanuvchining kiyimlari, surtmalar, voqea sodir bo'lgan joydagi ashvoviy dalillar hisoblanadi.

Sperma sud tibbiy tekshiruvlari jarayonida ekspert quyidagi savollarga javob berishi lozim bo'ladi:

1. Taqdim etilgan tekshiruv ob'ektlarida sperma mavjudmi?
2. Agar sperma mavjud bo'lsa, guruhiiy mansubligi qanaqa?
3. Spermaning kim tegishli ekanligi aniqlansin?

Demak ko'pchilik holatlarda qon va sperma dog'lari tekshiriladi. Zaruriyat tug'ilganda boshqa inson ajralmalari bilan bir qatorda yumshoq to'qima va suyak qoldiqlari ham tekshiriladi.

So'lak izlari tamaki qoldiqlari, pochta markasi, konvertlar, jabrlanuvchining yirtilgan kiyimlarida, ovqat qoldiqlari va boshqalarda qolishi mumkin. Ultrabinafsha nurlari ta'sirida



so'lak kuchsiz oqimtir-ko'kish shulalanadi. Oyoq va qo'l barmoqlari ter va yog' bezlari izlari to'liq, surtma ko'rinishida olinadi. Ayollar jinsiy a'zolari ajralmalari gumonlanuvchi kiyim va tanalarida bo'lishi mumkin. Mazkur ajralmalar mavjudligi, ularning tur va guruhiy mansubligi aniqlaniladi. Undan tashqari qismlarga ajratilgan murda yumshoq va suyak to'qimalari, barmoq, qo'l kaft va oyoq panja sohalari bo'lishi mumkin. Tana qismlarini (tog'ay, teri, suyak va boshqalar) tekshirib, ularning qaysi jinsga mansubligini ham aniqlash mumkin.

Ajralmalar mavjudligi asosan, ikki xil usul – morfologik tekshiruv va bioximik rang reaksiyalari bilan aniqlaniladi. Ya'ni so'lak uchun amilaza, siydik uchun kreatinin, ter uchun aminokislota topiladi.

Shunday qilib, protsessual harakatlar jarayonida, masalan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, qotillik, nomusga tegish, kriminal abort, og'ir tan jarohatlari yetkazilganda, albatta mutaxassis jalb qilish ko'pchilik holatlarda sud tibbiy ekspertni jalb etish maqsadga muvofiqdir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tergovchi biologik ajralmalarining to'liq tahlilini qilish ko'nikmalariga ega emas, natijada sud tergov muhokamasiga tayyorlashda qator savollarni muhokama qilishga to'g'ri keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Б.С. Использование метода хроматографии для одновременного определения наличия и группы крови в следах: Автореф. дис. ... канд. мед. наук. – М., 1984. – С. 19.
2. Артемов В.Г., Замотин В.А., Киндракина О.К. Наследуемые факторы крови и инфекционные заболевания детей первых семи лет жизни //Журн. микробиол. - 1983. - №4. - С. 89-92.
3. Ахмедов Т.Ж. Қонда А1 ва А2 антигенларни суд тиббиётига оид текширишнинг янги имкониятлари. Автореф. дис. тиббиёт фанлари номзоди. – Т., 2008. – 246 .
4. Дерюгина Е.И. Система АВО человека: АВН – антигены и АВН – антитела //Успехи соврем. биол. - 1990. - Т. 109, вып. 1. - С. 3-20.
5. Джалалов Д.Д., Абдуллаева Б.С. Способ определения группы крови системы АВО для идентификации личности. Авторское свидетельство №1330779 от 15 апреля 1987 г.
6. Методические рекомендации по определению групп крови АВО //Утверждены директором Гематологического научного центра РАМН акад. А.М.Воробьевым. – М., 1999. - С. 17.
7. Axmedov T.J. Qonda A1 va A2 antigenlarni sud tibbiyotiga oid tekshirishning yangi imkoniyatlari. Tipograf MCHJ bosmaxonasi, Toshkent – 2023, 88 bet.
8. Bakhriev, I. I., Khasanova, M. A., Shodiev, G. B., Babaev, K. H. N., & Akhmedov, T. J. (2020). Frequency of haptoglobin phenotypes and pathological changes of the liver



during poisoning by drugs on the background of alcohol intoxication. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 7(2), 2483-2487.

9. New method of blood typing using analytical magnetapheresis / H.Y. Tsai, C. Yin, Y.P. Lin, C.B. Fuh // *J. Chromatogr. A.* - 2006. - №1. - P. 35-37.

10. Vyacheslav, P., Ibrahim, B., Beruniy, C., Mukarram, H., & Tulkin, A. (2019). Use of formalin as an immunostimulant in animal immunization to produce specific serum precursors.

11. Xikmatullaev, R. Z., Baxriev, I. I., To'lqin, J. A., & Ibragimov, S. R. (2023). Bo'lajak shifokorni tarbiyalashning g'oyaviy-siyosiy birligi. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 112-115.

12. Ахмедов, Т. Ж., Ешмуратов, Б. А., & Бахриев, И. И. (2023). Аффин хроматография усулида А антигенининг гуруҳчаларини аниқлаш.

13. Ахмедов, Т. Ж., & Кодиров, М. М. (2024). Биологик ажралмаларнинг суд тиббий экспертизаси. *Prospects and main trends in modern science*, 1(9), 66-69.